

SEDANA DORIVOR O'SIMLIGINI EKISH ME'YORLARI HAMDA DORIVORLIK XUSUSIYATLARI

Mirzayeva Mutabar Azamovna

FarDU, Agrar Qo'shma fakulteti dotsenti., q.x.f.n.

Komiljonova Fotimaxon Mo'minjon qizi

FarDU, Agrar qo'shma fakulteti 2-kurs magistranti

Annotatsiya. *Ma'lumki, har qanday qishloq xo'jalik ekinlaridan yuqori va sifatli hosil olish uchun, shu ekinga mos dalani tanlash hamda uning o'ziga xos parvarishlash agrotexnikasini qo'llash juda muhimdir. Shundan kelib chiqqan holda, ushbu maqolada sedana o'simligini ekish me'yorlari hamda dorivorlik xususiyatlari haqida batafsil ma'lumot berilgan.*

Annotation. *It is well known that obtaining high-quality and abundant yields from any agricultural crop largely depends on selecting a field suitable for that crop and applying the appropriate cultivation techniques. Based on this, the article provides detailed information on the sowing norms of black cumin (*Nigella sativa*) and its medicinal properties.*

Аннотация. *Известно, что для получения высокого и качественного урожая сельскохозяйственных культур важно правильно выбрать подходящее поле и применять соответствующие агротехнические мероприятия. Исходя из этого, в данной статье представлены подробные сведения о нормах посева растения чернушки (*Nigella sativa*) и его лекарственных свойствах.*

Kalit so'zlar: *Farmaseftika, agrotexnika, ayiqtovondoshlar, harorat, timoxinon, omega-3, omega-6, reproduktiv, astma, radikal, xolesterin, plantatsiya.*

Keywords: *Pharmaceuticals, agrotechnics, Asteraceae, temperature, thymoquinone, omega-3, omega-6, reproductive, asthma, radical, cholesterol, plantation.*

Ключевые слова: *Фармацевтика, агротехника, сельдерейные, температура, тимохинон, омега-3, омега-6, репродуктивный, астма, радикал, холестерин, плантация.*

KIRISH

Mamlakatimizda o'simliklarning ekologik havfsiz mahsulotlarini yetishtirishda ilmiy va innovatsion yutuqlarni amaliyotga joriy etishga alohida e'tibor berilib, tarkibida qimmatli dorivor mahsulot saqlagan o'simliklarni ilmiy jihatdan yetishtirib, ulardan samarali foydalanish hozirgi kundagi dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Bizga ma'lumki dorivor o'simliklar ichida Sedana - qadimdan dorivorlik xususiyatlari, xushbo'y ta'mi va yuqori iqtisodiy qiymati bilan e'tirof etilgan bir yillik o'simlikdir. Uning urug'i yog'ga boy bo'lib, farmatsevtika, oziq-ovqat, parfyumeriya va xalq tabobatida keng

qo'llanadi. So'nggi yillarda O'zbekistonda ham sedana plantatsiyalari maydoni kengayib bormoqda.

Ekma sedana - *Nigella Sativa* L. ayiqtovondoshlar-Ranunculaceae oilasiga mansub. Bir yillik o'simik bo'lib, bo'yi 20-75 sm.ga yetadi. Poyasi shoxlangan, poya va shoxlarinmg uchi yakka holdagi gul bilan tugavdi. Pastki barglari qisqa bandli, yuqoridagilari bandsiz poya va shoxlarida ketma-ket joylashgan. Hamma barglari keng hiziqsimon, to'mtoq yoki o'tkir uchli bo'lakchalarga ikki-uch marta patsimon qirqilgan. Gul kosacha barglari 5 ta, zangori rangli, cho'ziq yoki tuxumsimon cho'ziq, uchi to'mtoq; gultojbargiari 5-8 ta, ikki labli,

kosachabarglaridan uch marta kalta. Mevasi - ko'p urug'li bargchalardan tashkil topgan to'p meva. Urug'i uch qirrali, burishgan, och-qo'ng'ir rangli. May-iyun oylarida gullaydi va mevasi yetiladi.

Tarqalishi. Ma'lumotlarga ko'ra O'rta Osiyo (O'zbekistonning Toshkent, Namangan va Samarqand viloyatlarida), Rossiyaning Yevropa qismining janubida va Kavkazda ekin ekiladigan yerlarda yovvoyilashgan holda ham uchraydi.

Sedana (*Nigella sativa*) ekish me'yorlari quyidagicha: O'simlik eng yaxshi qumoq va o'rtacha qumoq tuproqlarda, pH 6–7 oralig'ida yaxshi o'sadi. Tuproq 25–30 sm gacha shudgorlanadi. Ekish muddati hududga qarab mart oxiri–may boshigacha, tuproq harorati 10 – 12°C bo'lganda amalga oshiriladi. Urug' ekishdan oldin saralanadi, fungitsid bilan ishlov beriladi va qum bilan 1:5 nisbatda aralashtiriladi. Ekish normasi 1 gektarga 6–8 kg, unuvchanligi past bo'lsa 8–10 kg bo'ladi. Qator oralari 45–60 sm, ekish chuqurligi 1,5–2,5 sm etiborli me'yor hisoblanadi. Har bir metrga 250–300 dona urug' to'g'ri kelishi kerak. Sug'orish ekilgandan so'ng bir marta, unishdan keyin 2–3 marta, gullash oldidan esa qo'shimcha bir marta amalga oshiriladi. Mevalashda ko'p sug'orish tavsiya etilmaydi. O'g'itlashda 5–8 tonna chirindi, 40–60 kg azot, 40–50 kg fosfor va 30–40 kg kaliy beriladi. Parvarish jarayoniga qator oralarini yumshatish, begona o'tlarni yo'qotish va zarur bo'lsa siyraklashtirish kiradi. Sedana 110–130 kunda pishadi, hosil ko'saklar qorayganda yig'ib olinadi; o'rtacha hosildorlik 6–10 s/ga, yaxshi sharoitda 12–15 s/ga ni tashkil qiladi.

Olib borilgan tajribalarga ko'ra Sedana yetishtirishda urug' sifati va tuproqning to'g'ri tayyorlanishi bilan birga, ekin maydonini shamollatilishi ham katta ahamiyatga ega, chunki sedana zich ekilganda qo'ng'iz va chirish kasalliklari ko'payishi aniqlandi. O'simlik yorug'likni yaxshi ko'radi, shuning uchun soyali maydonlarda hosil kamayadi. Sedana o'rtacha 110–140 kun davomida rivojlanadi, bu muddat iqlim va navga qarab o'zgaradi. Xususan, issiq hududlarda o'simlik tez gullaydi, ammo yog' miqdori biroz kamayishi mumkin. Sedananing ildiz tizimi yuzaki bo'lgani uchun tuproqning ustki qatlamini 4–5 sm gacha yumshatib turish o'sishni tezlashtiradi. Kasalliklardan asosan ildiz chirishi, unib chiqish davrida qo'ng'izlar va tripslar uchraydi, ularga qarshi agrotexnik chora sifatida almashlab ekish va to'g'ri sug'orish rejimi yetarli bo'ladi. Hosil yig'ilgandan so'ng urug'larni darhol tozalash va soyada quritish yog'ning oksidlanishining oldini oladi. Saqlash uchun eng yaxshi sharoit — 10–15°C harorat, 50–60% namlik va to'liq shamollatiladigan xonalar.

Ma'lumotlarga ko'ra Sedana urug'lari to'g'ri saqlanganda 2–3 yil unuvchanligini saqlaydi, lekin eng yaxshi natija yangi urug'dan olinadi.

DORIVORLIK XUSUSIYATLARI.

Sedana (*Nigella sativa*) qadimdan eng ko'p qo'llanilgan dorivor o'simliklardan biri bo'lib, uning urug'i, yog'i va efir moylari shifobaxsh moddalarga juda boy sanaladi. Sedaning tarkibida timoxinon, nigellon, efir moylari, omega-3 va omega-6 yog' kislotalari, alkaloidlar, flavonoidlar, aminokislotalar hamda tabiiy antioksidantlar mavjud bo'lib, ular organizmni toksinlardan tozalash, yallig'lanishni kamaytirish va immunitetni kuchaytirish xususiyatlariga ega. Sedana urug'i qadimdan "hamma dardga davo, faqat o'limdan boshqa" sifatida tilga olinadi, chunki uning biologik ta'sir doirasi juda keng. Avvalo, sedana immunomodulyator vosita sifatida tananing tabiiy himoya kuchlarini faollashtiradi, shamollash, allergiya, surunkali bronxit, astma kabi nafas yo'llari kasalliklarida nafasni ochish va yallig'lanishni kamaytirishga yordam beradi. Uning tarkibidagi timoxinon kuchli antioksidant bo'lib, hujayralarni erkin radikallardan himoya qiladi, qarish jarayonini sekinlashtiradi va surunkali kasalliklar xavfini kamaytiradi.

Sedana yurak-qon tomir tizimiga ijobiy ta'sir ko'rsatib, xolesterin va qon bosimini me'yorlashtirishga yordam beradi, qon aylanishini yaxshilaydi. Yog'i jigarning faoliyatini tiklash, yog' bosish jarayonini kamaytirish, ichak mikroflorasini normallashtirishda qo'llaniladi. Shuningdek, sedana hazm jarayonini yengillashtiradi, oshqozon og'riqlari, meteorizm, gastrit va o't yo'llari faoliyatida foydali ta'sir ko'rsatadi. Uning tabiiy antibakterial va zamburug'larga qarshi xususiyatlari teri kasalliklarida, ekzema, dermatit yaralarni davolashda samarali hisoblanadi. Sedana asab tizimini tinchlantiruvchi, uyquni yaxshilovchi, stressni kamaytiruvchi xususiyatga ega bo'lib, me'yorida iste'mol qilinsa, umumiy quvvatni oshiradi. Ayollar salomatligida ham ahamiyati katta: u gormonal muvozanatni yumshoq tarzda tartibga soladi, hayz og'riqlarini yengillashtiradi, erkaklarda esa reproduktiv salohiyatni qo'llab-quvvatlaydi. Berilgan ma'lumotlarga ko'ra Sedana organizmni umumiy mustahkamlovchi kuchli vosita bo'lib, uning dorivor qiymati hozir ham tibbiyot va fitoterapiyada yuqori baholanadi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, sedana o'simligini yetishtirishda to'g'ri ekish me'yorlariga amal qilish va uning dorivorlik qiymatini chuqur anglash ekinning iqtisodiy hamda shifobaxsh ahamiyatini yanada oshiradi. Sedaning 6–8 kg/ga urug' normasi, 45–60 sm qator oralig'i, 1,5–2,5 sm ekish chuqurligi va o'z vaqtida sug'orish hamda o'g'itlash kabi agrotexnik tadbirlar yuqori hosil va sifatli urug' olishga zamin yaratadi. O'simlikning tarkibidagi timoxinon, efir moylari, omega yog' kislotalari va tabiiy antioksidantlar esa uni kuchli immunomodulyator, yallig'lanishga qarshi, antibakterial va organizmni tiklovchi dorivor vosita sifatida qadrlanishiga sabab bo'ladi. Shunday qilib, sedaning agrotexnik afzalliklari va shifobaxsh xususiyatlari uni nafaqat iqtisodiy samarali ekin, balki sog'liq uchun muhim tabiiy manba sifatida ahamiyatli ekanligini aytish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI :

1. Aliqulov S., Rasulov I., Abdullaev F., Nazarmetov X. Dorivor o'simliklar – xalqimizning tabiiy boyligidir. Academic Research in educational Sciences, volume-3, issue-5. 2022, 984-990 betlar.
2. Allashov B., Jamolov S. Sug'oriladigan maydonlarda ozuqabop yekinlarni yetishtirish. Fermerlar uchun o'quv-uslubiy qo'llanma. Toshkent, 2019-yil. 9-bet.
3. Axmedov Ye., Berdiev Ye. Dorivor o'simliklarni yetishtirish texnologiyasi fanidan o'quv qo'llanma Toshkent, 2017. 25-bet.
4. Ahmedov O', Yergashev A., Abzalov A. Dorivor o'simliklar va ularni o'stirish texnologiyasi. Toshkent, Ibn Sino nomidagi nashriyot matbaa birlashmasi, 2011. 232-bet.
5. Muhammadiyev B. O'simliklarni oziqlantirish va zararkunandalardan himoya qilish. ToshDAU Nashriyot tahririyat bo'limi – 2016, 36-bet.